

**BIR MARTALIK TO‘LOV ASOSIDA**  
**VIDEOKURSLARNI XARID QILISH BO‘YICHA**  
**OMMAVIY OFERTA**

## **1. UMUMIY QOIDALAR**

1.1. Ushbu oferta mijozlar (jismoniy shaxslar) ni ro‘yxatdan o‘tkazish, identifikatsiya qilish va tasdiqlash tartibini, INTIL platformasida ular bilan ikki tomonlama elektron shartnomalar tuzish tartibini belgilaydi, shuningdek, mijoz va xizmat ko‘rsatuvchi o‘rtasidagi yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi.

Shuningdek, mazkur ofertada video kurslarning oldi-sotdi munosabatlarini, ya’ni xaridor tomonidan videokursni xarid qilish va platforma mualliflari tomonidan uni taqdim etish jarayonlarini ham tartibga soladi.

1.2. Oferta O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonun, Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-iyundagi 185-son qarori bilan tasdiqlangan “Elektron tijoratni amalga oshirish qoidalari”, “Iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun, “Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

## **2. ASOSIY TUSHUNCHALAR**

**Aksept** - xaridor tomonidan bir martalik to‘lovni amalga oshirish, shartnoma shartlariga rozi bo‘lib, uni qabul qilish va taraflar o‘rtasida shartnoma tuzilganini bildiradi.

**Bank** - XATB “Orient Finans”- mijoz yoki uning vakilining mavjud barcha bank kartalaridan to‘lov va qarzdorlikni hisobdan yechish va ushbu yechilgan mablag‘larni xizmat ko‘rsatuvchining joriy hisob raqamiga o‘tkazish bo‘yicha mas‘uldir.

**Ro‘yxatdan o‘tgan telefon raqami** - platformada ro‘yxatdan o‘tish jarayonida mijoz o‘zini identifikatsiyalash uchun ko‘rsatgan va sotuvchi tomonidan tasdiqlangan mobil telefon raqami.

**Masofaviy xizmat ko‘rsatish kanali** - mijoz bilan har qanday aloqa qilish shakli, shu jumladan shaxsiy kabinet, mobil ilova, tizim orqali va boshqa platormalarni o‘z ichiga olgan, xaridorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun mo‘ljallangan aloqa vositalari.

**Karta** - xaridor tomonidan identifikatsiya jarayonida ko‘rsatilgan, identifikatsiyalash jarayonida foydalanish mumkin bo‘lgan va kelajakda qabul qilingan ofertaga va shartnomaga muvofiq “Takroriy to‘lov” xizmati yoqilishi mumkin bo‘lgan mijozning barcha bank kartalari.

**Mijoz (xaridor)** - identifikatsiyadan o‘tish maqsadida Intilga murojaat qilgan va platformaning imkoniyatlari, funksiyalari va tashkiliy mexanizmlaridan foydalangan holda kerakli tarzda xizmatlarni bir martalik to‘lovga sotib olish istagini bildirgan jismoniy shaxs.

**Savdo ofertasi** – Xizmat ko‘rsatuvchi tomonidan platformaning elektron aloqa kanallari orqali mijozga yuboriladigan, shartnomaning individual va ushbu umumiy shartlar bilan shartnoma tuzish taklifini bildiruvchi hujjat.

**Kafil** - mijoz tomonidan shartnoma bo'yicha to'lov majburiyatlarini subsidiar shaklda bajarish uchun ro'yxatdan o'tish jarayonida platformaga shaxsiy ma'lumotlari va plastik karta raqamlari kiritilgan shaxs. Kafil mijozning shaxsiy ma'lumotlari va plastik karta raqamlari kiritilishi uchun uning telefon raqamiga jo'natilgan maxsus SMS kodni mijozga ma'lum qilishi orqali kafilikka rozi bo'lganini bildiradi. Ushbu oferta bo'yicha mijoz bilan kafil o'rtasidagi har qanday nizolar uchun xizmat ko'rsatuvchi javobgar hisoblanmaydi.

**Shaxsiy kabinet** - bu veb-sayt yoki mobil ilova ichidagi cheklangan foydalanuvchi maydoni bo'lib, unda mijoz masofaviy identifikatsiya jarayonidan o'tadi, to'lov qobiliyatini tekshiradi, shartnomalar bo'yicha takliflarni tuzadi va qabul qiladi, amalga oshirilgan shartnomalar haqida ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'ladi va platformada boshqa zarur amallarni bajaradi. Shaxsiy kabinet orqali amalga oshirilgan barcha amallar va yuborilgan hujjatlar, jumladan so'rovlar, mijoz tomonidan amalga oshirilgan va yuborilgan deb hisoblanadi.

**Savdo taklifi** - bu xizmat ko'rsatuvchi tomonidan platformaning elektron aloqa vositalari orqali xaridorga jo'natiladigan va shartnomaning alohida shartlarini o'z ichiga olgan hujjat bo'lib, u xizmat ko'rsatuvchining xaridorga ushbu shartnoma asosida bitim tuzish bo'yicha taklifini ifodalaydi.

**Xizmat ko'rsatuvchi (sotuvchi)** – Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Novza ko'chasi 12-uyda joylashgan “INTIL” MCHJ.

**Platforma** - bu xizmat ko'rsatuvchi va xaridor o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ta'minlash uchun axborot tizimi orqali xizmatlarni sotishga mo'ljallangan tashkiliy, axborot va texnik yechimlardan iborat dasturiy-ta'minot majmuasi.

**Dasturiy ta'minot** - bu xaridorga veb-saytdan, shaxsiy kabinetdan yoki mobil ilovadan onlayn foydalanish, elektron shaklda oferta, shartnomalar va qo'shimcha bitimlar tuzish, shuningdek boshqa hujjatlar va xabarlar almashish imkonini beruvchi dasturiy vositalar to'plami.

**Push-xabar** - bu platforma tomonidan xaridorning mobil qurilmasi ekranida paydo bo'ladigan qisqa xabar shaklida xaridorga yuboriladigan bildirishnoma.

**Sayt** – <https://intil.uz> manzilida joylashgan platformaning internet-resursi.

**Shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berishga rozilik** - mijozning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga va mijoz tomonidan dastlabki identifikatsiya qilish va tekshirish jarayonlaridan o'tish paytida bildirilgan boshqa majburiyatlarni yoki mijozning shaxsiy kabinetida, shuningdek mobil ilova yoki platformada ko'rib chiqish uchun mavjud bo'lgan har qanday boshqa shartlarga rozilik.

**Tovar/Xizmatlar** - platformada belgilangan va xizmat ko'rsatuvchi tomonidan taqdim etilgan, mijoz tomonidan xizmat ko'rsatuvchidan sotib olingan ishlar yoki xizmatlar.

### 3. SHARTNOMA PREDMETI

3.1. Mazkur oferta shartlariga muvofiq xizmat ko'rsatuvchi mijoz tomonidan tanlangan onlayn o'quv kurslari bo'yicha o'qitish xizmatlarini ko'rsatish, mijoz esa ushbu xizmatlarni qabul qilib, ularning qiymatini to'lash majburiyatini oladi. Ushbu xizmatlar mijozga shaxsiy kabinet orqali elektron o'quv materiallariga kirish imkoniyatini beruvchi onlayn-kurs, texnik yordam, uy vazifalarini tekshirish, kursni muvaffaqiyatli tugatgani to'g'risida sertifikat berish xizmatlarini o'z ichiga olishi mumkin.

3.2. Kurslarning tavsifi, uning davomiyligi, formati, shuningdek, ta'lim natijalari Intil platformasida batafsil bayon etiladi.

#### **4. PLATFORMADAN RO'YXATDAN O'TISH**

4.1. Intil platformasida harakatlarni amalga oshirish va xizmat(lar)ni bir martalik to'lovga sotib olish uchun Xaridor dastlab "[Intil.uz](http://Intil.uz)" sayti orqali ro'yxatdan o'tishi kerak.

4.2. Avval mijoz platformaga o'zi va kafilga tegishli plastik bank kartasi (UzCARD, HUMO, Visa) ulangan mobil telefon raqamini (ya'ni SMS-xabarnoma xizmati bog'langan telefon raqami) kiritishi va tegishli maydonda telefon raqamini tasdiqlash uchun SMS orqali olingan kodni kiritishi shart.

4.3. Mijoz sms tasdiqlovni olganidan so'ng, shaxsiy va boshqa ma'lumotlariga ishlov berish hamda saqlash bo'yicha platforma siyosati bilan, shuningdek, elektron tijorat orqali bir martalik to'lov asosida videokurslarni sotib olishga oid umumiy shartlar (ommaviy oferta) bilan tanishganligini va ularga roziligini tasdiqlaydi.

4.4. Ro'yxatdan o'tishni davom ettirish uchun mijoz plastik bank kartasi raqami hamda amal qilish muddatini kiritishi kerak. Shundan keyin, mijoz mazkur shartnomaning 4.2-bandiga muvofiq kiritgan telefon raqamiga kodli SMS-xabar yuboriladi, uni kiritish orqali mijoz Intil platformasida sotib olgan tovar va xizmatlar uchun barcha to'lovlar mazkur bank kartalari orqali amalga oshirilishiga rozilik bildiradi.

4.5. Ushbu Umumiy qoidalarining 4.2, 4.3, 4.4-bandlarida ko'rsatilgan ma'lumotlar to'liq kiritilgandan so'ng, Intil platformasi to'lov qobiliyatini baholash tartib-taomilini amalga oshiradi va Mijozga kiritilgan ma'lumotlar tasdiqlashdan muvaffaqiyatli o'tganligi to'g'risida yoki tasdiqlash rad etilganligi to'g'risida elektron xabar yuboradi.

4.6. Tasdiqlash rad etilganligi to'g'risida elektron xabar olingan taqdirda, mijoz 4.2, 4.3, 4.4-bandlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarni takror kiritishi talab etiladi.

4.7. Tasdiqlash muvaffaqiyatli bo'lgach, mijoz platformadagi shaxsiy kabinetiga kirish huquqiga ega bo'ladi va shu paytdan boshlab, mijozni Intil platformasida ro'yxatdan o'tkazish, identifikatsiya qilish va tekshirish jarayoni tugallangan hisoblanadi va bir martalik to'lov evaziga xizmatni sotib olishga haqli bo'ladi.

#### **5. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

##### **5.1. Xizmat ko'rsatuvchining huquqlari**

5.1.1. Xizmat ko'rsatuvchi, taqdim etilgan hujjatlarning elektron (skanerlangan) nusxalarining haqiqiyliги yoki ishonchliligiga shubha tug'lganda, xaridorni ro'yxatdan o'tkazishni yoki xizmat ko'rsatishni rad etish huquqiga ega. Bunday holatda, xaridor Intil platformasiga hujjatlarining tegishli elektron (skanerlangan) nusxalarini qayta joylaganidan keyin Xizmat ko'rsatuvchi tomonidan hujjatlar ko'rib chiqiladi;

5.1.2. Xaridor bilan kelishuvsiz kurs mazmuniga (to'liq yoki qisman) o'zgartirishlar kiritish;

5.1.3. Saytda texnik resurslar bo'yicha zarur rejali texnik xizmat olib borish va ta'mirlash ishlarini bajarish uchun kurs va saytning ishlashini vaqtincha to'xtatib turish;

5.1.4. Agar kursda murabbiy (mentor) xizmati nazarda tutilgan bo'lsa, shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan kurs murabbiylarini almashtirish;

5.1.5. Mazkur shartnomada belgilangan holatlarda shartnomani bir tomonlamani bekor qilish;

5.1.6. Xizmatlar sifatini oshirish maqsadida xaridor bilan bo'lgan telefon suhbatlarni yozib olish;

5.1.7. Xaridor tomonidan to'lov o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida undan kafil talab qilish.

## **5.2. Xizmat ko'rsatuvchining majburiyatlari**

5.2.1. Xaridor belgilangan talablarni bajargan taqdirda uni platformada ro'yxatdan o'tkazish;

5.2.2. Xaridor tomonidan to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab tovar va xizmatlarga kirish imkoniyatini 24 soat ichida taqdim etish. Texnik uzilishlar yoki kirishni o'z vaqtida ta'minlashga to'sqinlik qiluvchi boshqa kutilmagan holatlar yuz bergan taqdirda, zudlik bilan xaridorni yuzaga kelgan vaziyat haqida xabardor qilish va uni imkon qadar tezroq bartaraf etish uchun barcha zarur choralarini ko'rish;

5.2.3. Agar kursda murabbiy (mentor) xizmati mavjud bo'lsa, xaridor tomonidan bajarilgan uy vazifalarini tekshirilishi va ularning natijalarini 7 (yetti) ish kuni ichida xaridorga taqdim etishi kerak. Uygaz vazifalar soni ko'p yoki uning murakkabligi tufayli tekshiruv uchun qo'shimcha vaqt talab etilsa, xaridorni bu haqida oldindan ogohlantirish;

5.2.4. Toshkent shahri mahalliy vaqti bilan soat 10:00 dan 19:00 gacha bo'lgan vaqtda xaridorlarga malakali yordam ko'rsatish, savollarga tez fursatda (uzog'i bir soat Ichida) javob berish (savollar soni ko'p va yuklama yuqori bo'lgan taqdirda OAV orqali ogohlantirish);

5.2.5. Kursga, uning materiallariga kirish va o'quv platformasining ishlashi bo'yicha texnik yordamni xaridor murojaat qilgan paytdan boshlab doimiy, ya'ni haftaning 7 kuni davomida 24 soat ichida ta'minlash (murakkab texnik muammolar yuzaga kelganda, ularni bartaraf etish uchun ko'p vaqt talab etilsa, xizmat ko'rsatuvchi xaridorni amalga oshirilayotgan choralar va muammoni hal qilish muddatlari to'g'risida xabardor qilish);

5.2.6. To'lovi to'liq amalga oshirilgan kurslarning video darslari va boshqa o'quv materiallaridan foydalanishning texnik imkoniyatini shartnoma tuzilgan kundan e'tiboran 1 (bir) yilgacha ta'minlash (agar kurs o'z aktualligini yo'qotmasa, bu muddat xizmat ko'rsatuvchi tomonidan uzaytirilishi mumkin);

5.2.7. Xaridorning shaxsga doir ma'lumotlaridan O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida ruxsat etilgan tartibda foydalanish, ishlov berish hamda uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik, ularning maxfiyligini ta'minlash (agar ma'lumotlar umumiy foydalanish uchun ochiq bo'lsa yoki xaridor rozilik bildirgan holatlar bundan istisno);

5.2.9. Xaridor ushbu ommaviy ofertani tasdiqlashi va qabul qilishi (aksept) orqali, "INTIL" MCHJga o'zining kredit tarixi va moliyaviy axborotlarini kredit byurolari yoki boshqa ma'lumot manbalaridan olishga rozilik bildiradi. Ushbu ma'lumotlar xaridorning to'lov qobiliyatini baholash, to'lov majburiyatlarini bajarilishini ta'minlash maqsadida foydalaniladi;

5.2.10. Agar kurs doirasida mentor xizmati nazarda tutilgan bo'lsa, u shartnoma tuzilgan kundan boshlab 8 (sakkiz) oygacha ta'minlanadi.

## **5.3. Xaridorning majburiyatlari**

5.3.1. Xaridor ushbu shartnoma shartlariga muvofiq, xizmat uchun o'z vaqtida to'lovni amalga oshirish. Agar to'lov amalga oshirilmasa, sotuvchi to'lov to'liq amalga oshirilguniga qadar xizmatlarni taqdim etishni to'xtatish huquqiga ega. Bunda, xaridor tomonidan to'lovi amalga oshirilgan videodarslardan foydalanish imkoniyati saqlanib qoladi;

5.3.2. Kompyuter, smartfon va boshqa elektron qurilmalarda to'lov vositalarining ishonchliligi va xavfsizligini ta'minlash;

5.3.3. Xizmat ko'rsatuvchining taklifini va to'lov shartlarini qabul qilishdan oldin, shartnoma shartlarini (narx, tanlangan o'quv kursi turi, to'lov usuli, javobgarlik va hokazo) diqqat bilan tanishib chiqish;

5.3.4. Xizmatlarni faqat shaxsiy maqsadlar uchun sotib olish va tadbirkorlik yoki daromad topish maqsadida foydalanmaslik. Xususan, darslik majmualarini yoki ularning qismlarini sotuvchining yozma ruxsatisiz boshqa shaxslar yoki tashkilotlarga nashr etish, tarqatish, ommalashtirish yoki boshqacha tarzda foydalanishdan saqlanish;

5.3.5. Shaxsiy hisob raqamining identifikatsiya ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik va ularni himoyalash;

5.3.6. Intil platformasi va shaxsiy kabinetda e'lon qilingan xabarlar va bildirishnomalarni muntazam kuzatib boorish;

5.3.7. Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot xodimlari bilan muloqot jarayonida umum-e'tirof etilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish;

5.3.8. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, shartnoma tuzish va amalga oshirish uchun shaxsiy ma'lumotlarni ishlov berishga to'liq rozilik berish;

5.3.9. Ro'yxatga olish bosqichida kiritgan shaxsiy ma'lumotlaridagi o'zgarishlar haqida platformani darhol xabardor qilish, xususan:

a) Asosiy mobil telefon raqami o'zgarganda;

b) Doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tgan manzili o'zgarganda;

c) Ism va familiyasi o'zgarganda.

5.3.10. Xaridor Intil platformasidan olgan xizmatlar va ularning natijalarini, shu jumladan online kurslar va darsliklardan shaxsiy foydalanish huquqini tijorat maqsadida ishlatmaslik hamda uchinchi shaxslarga tarqatmaslik yoki sotmaslik;

5.3.11. Platformadan uchinchi shaxslarning huquqlarini buzish yoki noqonuniy maqsadlarda foydalanmaslik;

5.3.12. Xaridor olingan bilimlardan qonunga xilof, noto'g'ri yoki etikasiz harakatlarni, shu jumladan xakerlik, ma'lumotlarga noqonuniy kirish, zararli dasturiy ta'minot yaratish va tarqatish, intellektual mulk huquqlarini buzish kabi amallarni sodir etish uchun foydalanmaslik. Bundan tashqari, xaridor bu kabi harakatlarni boshqa mijozlar bilan yoki xizmat ko'rsatuvchining xodimlari bilan birgalikda sodir qilsa ham, javobgar bo'ladi;

5.3.13. To'lov o'z vaqtida amalga oshirilishni ta'minlash maqsadida platformaga kafil haqida to'liq va to'g'ri ma'lumotlarni kiritish;

5.3.14. Platformaga ro'yxatdan o'tkazishda kiritilgan shaxsiy va o'ziga tegishli plastik karta raqamining ma'lumotlari to'g'riligini kafolatlash;

5.3.15. Kurslarga doir muhokama bo'ladigan telegram guruhlarda "Intil" MCHJ tomonidan o'rnatilgan ichki-tartib qoidalarga rioya etish.

#### **5.4. Xaridorning huquqlari**

5.4.1. Sotuvchidan ushbu shartnomada va amaldagi qonunchilikda belgilangan hajm, sifat va muddatlarda xizmatlarni ko'rsatishni talab qilish;

5.4.2. Shaxsiy kabinet, mobil ilova yoki boshqa masofaviy aloqa kanallari orqali kurs materiallariga va qo'shimcha resurslarga shartnomada ko'rsatilgan muddat davomida uzluksiz kirish imkoniyatiga ega bo'lish;

5.4.3. Kurs bo'yicha texnik nosozliklar, kirishdagi uzilishlar yoki boshqa xizmat sifati bilan bog'liq muammolar yuzaga kelgan taqdirda, xizmat ko'rsatuvchidan bepul va o'z vaqtida texnik yordam olish;

5.4.4. Kurs mazmuniga yoki sifatiga nisbatan e'tirozlar bo'lsa, shartnomada belgilangan tartibda, belgilangan muddat ichida ularni ko'rib chiqish va hal etish uchun sotuvchiga murojaat qilish;

5.4.5. Kursni o'zlashtirish jarayonida sotuvchidan malakali maslahat va o'quv-metodik yordam olish;

5.4.6. Shartnoma shartlarini buzmasdan xizmatlardan voz kechish huquqidan shartnomada belgilangan tartib va muddatlarda foydalanish;

5.4.7. Shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi va himoyasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga rioya etilishini talab qilish, shuningdek, o'z ma'lumotlarini ko'rish, tuzatish yoki o'chirib tashlash to'g'risida so'rov yuborish;

5.4.8. Xizmat ko'rsatish shartlarini, kurs davomiyligi, narxi, to'lov tartibi va boshqa muhim ma'lumotlarni shartnoma tuzilishidan oldin bepul va to'liq olish;

5.4.9. Sotuvchining bir tomonlama shartlarni o'zgartirishiga faqat xaridor xabardor qilingan va unga rozilik bildirgan taqdirda yo'l qo'yilishini talab qilish;

5.4.10. Shartnoma shartlari buzilgan yoki xizmat sifati talab darajasida bo'lmagan taqdirda, qonunchilikka muvofiq pul mablag'larini qaytarib olishni talab qilish;

5.4.11. Shartnomadan kelib chiqadigan nizolarni qonunchilikda belgilangan tartibda ko'rib chiqish, shu jumladan, sudga yoki boshqa vakolatli organlarga murojaat qilish.

#### **6. TO'LOV TARTIBI VA KURS NARXI**

6.1. Kursning narxi Intil platformasida ko'rsatiladi. Xaridor tomonidan tanlangan kurs va to'lov turi xaridorning shaxsiy kabinetida aks ettiriladi hamda ushbu ma'lumotlar mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

6.2. Xaridor kursni bir martalik to'lov asosida sotib oladi. To'lov xaridor tomonidan to'liq amalga oshirilganidan so'ng, xaridorga platformaga kirish va kurs materiallaridan foydalanish huquqini beradi.

6.3. To'lov amalga oshirilgandan keyin mablag' qaytarilmaydi, bundan faqat qonunchilikda yoki mazkur Shartnomada nazarda tutilgan holatlar mustasno.

6.4. Xaridor tomonidan to'lovning amalga oshirilishi ushbu shartnoma shartlariga aksept sifatida tan olinadi hamda shartnoma to'lov amalga oshirilgan paytdan boshlab kuchga kiradi. Mazkur shartnoma elektron shaklda tuziladi va elektron imzo, SMS-kod, push-xabar, yoki shaxsiy kabinet orqali tasdiqlangan aksept bilan bir xil yuridik kuchga ega hisoblanadi. Shartnoma kuchga kirganligini tasdiqlovchi hujjat sifatida xaridorga sms xabar sifatida yuborilgan to'lov tasdiqlanganligi haqida chek yuridik dalil hisoblanadi.

6.5. Xizmat ko'rsatuvchi xaridorga to'lov muvaffaqiyatli amalga oshirilganligi to'g'risida elektron xabarnoma yuborishi yoki bu haqidagi ma'lumotni xaridorning shaxsiy kabinetida aks ettirishi orqali tasdiqlaydi.

6.6. Xizmat ko'rsatuvchi xaridor tomonidan to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab belgilangan muddat ichida kurs materiallariga to'liq kirish imkonini ta'minlash majburiyatini oladi.

6.7. Xizmat ko'rsatuvchining platformasidagi tovar va xizmatlar narxi O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'mda, barcha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobga olingan holda ko'rsatilgan. Mazkur shartnoma asosida taqdim etilayotgan xizmatlar uchun to'lov xaridor tomonidan turli to'lov tizimlari (Payme, Click va boshqalar) orqali amalga oshirilishi mumkin.

6.8. Agar xaridorning biriktirilgan plastik kartalaridan to'lovni amalga oshirish uchun yetarlicha mablag' bo'lmasa, unga kafil bo'lishga rozilik bildirgan yoki xaridor ro'yxatdan o'tish yoki kursni sotib olish jarayonida platformaga biriktirgan uchinchi shaxslarning plastik kartalaridan oldindan ogohlantirishsiz avtomatik ravishda pul yechib olinishiga rozilik bildiradi. Bunda, ushbu to'lovlarni amalga oshirish yuzasidan xaridor bilan kafil yoki uchinchi shaxslar o'rtasidagi nizolar uchun xizmat ko'rsatuvchi javobgar hisoblanmaydi.

## **7. XIZMATLARDAN VOZ KECHISH TARTIBI**

7.1. Agar xaridorda kurs bo'yicha taqdim etilgan xizmatlarga nisbatan e'tirozi bo'lsa, u kurslardan foydalanish uchun platformaga kirish huquqi taqdim etilgan vaqtdan boshlab bu haqida 5 (besh) kalendar kun ichida sotuvchiga xabar berishi kerak. Agar shartnoma tuzilganiga 5 kundan kam vaqt o'tgan bo'lsa, xaridorning talabiga ko'ra, to'lov qaytariladi va kurs bekor qilinadi. 5 kunlik muddat o'tganidan keyin e'tirozlar qabul qilinmaydi va xaridor kursning keyingi qismini o'zlashtirmagan, qatnashmagan yoki boshqa sabablarga ko'ra ta'lim jarayonini davom ettirmagan deb topiladi.

7.2. Pulni qaytarish jarayonini boshlash uchun xaridor shartnomani bekor qilish sabablarini va kurs uchun to'langan summani tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda "E'tirozlar" bo'limiga yozma murojaat qilishi shart. Sotuvchi arizani olgandan keyin 14 ish kuni ichida uni ko'rib chiqadi va pul mablag'larini qaytarish bo'yicha qaror qabul qilib, bu haqida xaridorga xabar beradi. Ijobiy qaror qabul qilingan kundan boshlab, pul mablag'lari xaridorning plastik kartasiga 30 kalendar kuni ichida qaytariladi.

## **8. FORS-MAJOR HOLATLARI**

8.1. Agar shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik yengib bo'lmaz kuch oqibatida (fors-major), shartnoma tuzilgandan so'ng yuzaga kelgan favqulodda hodisalar natijasida (urush, suv toshqini, yer qimirlashi, epidemiya, hukumat karorlari va h.k.) vujudga kelgan bo'lsa, taraflar shartnoma bo'yicha majburiyatlari qisman yoki to'liq bajarilmagani uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

8.2. Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtda "Taraflar" ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnoma bo'yicha o'zaro majburiyatlarini bajarishdan ozod bo'ladilar.

8.3. Yuzaga kelgan fors-major holatlari haqida hamda ushbu holatlar yakunlanganligi haqida har bir taraf ushbu holatlar yuzaga kelgan yoki bartaraf etilgan vaqtdan boshlab, 3 (uch) ish kuni ichida bu haqda ikkinchi tarafni yozma ravishda xabardor qilishi lozim.

8.4. Fors-major holatlari 30 kun mobaynida bartaraf etilmagan taqdirda taraflar ushbu shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga haqli bo'ladilar. Yuzaga kelgan fors-major holatlari bartaraf bo'lganidan keyin mazkur shartnoma shartlari to'liq o'z kuchiga ega bo'ladi.

## **9. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI**

9.1. Intil platformasida nashr etilgan barcha matn, grafik va video materiallar mualliflik huquqlari bilan himoyalangan bo'lib, ularni noqonuniy ishlatish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid ravishda javobgarlikka sabab bo'ladi.

9.2. Intil platformasining funksionalligini ta'minlovchi dasturiy va apparat komplekslaridagi nosozliklar, xatolar yoki uzilishlar, shuningdek, xaridorning platformaga aloqasi bo'lmagan sabablar tufayli dasturiy yoki apparat vositalaridan vaqtincha foydalana olmasligi yoki shunga bog'liq bo'lgan zararlari uchun xizmat ko'rsatuvchi javobgar emas.

9.3. Quyidagi holatlarda kelib chiqqan zararlari uchun xizmat ko'rsatuvchi javobgar emas:

- a) Xaridorning platformaga kirishda ishlatadigan qurilmalarida yoki dasturiy ta'minotida mavjud bo'lgan viruslar yoki boshqa zararli dasturlar;
- b) Intil platformasidan foydalanishda noto'g'ri ma'lumotlarni kiritish;
- c) Xaridor tomonidan shartnoma shartlarining buzilishi;
- d) Xaridor tomonidan to'lov tartib-qoidalarining buzilishi;
- e) Xaridor platformadagi login va parollarni unutib qo'yishi natijasida kurslardan foydana olmaganligi.

9.4. Sotuvchi quyidagi holatlarda xaridorning shaxsiy kabinetiga kirishini cheklash huquqini o'zida saqlab qoladi:

- a) Xaridor tomonidan boshqa xaridorlar yoki uchinchi shaxslarning huquqlarini yoki qonuniy manfaatlarini buzilganligi haqida da'volar kelib tushganda;
- b) Xaridor platformaning dasturiy ta'minotiga ruxsatsiz o'zgartirishlar kiritilganligi aniqlanganda;
- c) Xaridor tomonidan shartnoma shartlari buzilganda.

9.5. Sotuvchi xaridor tomonidan quyidagi holatlar yuz berganda ushbu shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqini o'zida saqlab qoladi va to'lovni qaytarmaydi:

- a) Kurs materiallarini ko'chirish, tarqatish, qayta sotish yoki kurs kontentiga noqonuniy kirishga urinishlar;
- b) Jamoatchilik oldida sotuvchining brendi yoki obro'sini to'kish, shubha ostiga qo'yish, yolg'on

ma'lumotlar tarqatish va h.k. orqali diskreditatsiya qilish;  
c) Kurs to'lovlarini 15 kalendar kundan ortiq kechiktirish;

d) Kurs muhokamasi bo'ladigan guruhlarda (sayt, telegram, instagram va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda) muloqot qilish jarayonida odob-axloq qoidalariga rioya qilmaslik (so'kinish; uyatsiz rasmlar yuborish, guruh a'zolari va spikerlarning shaxsiyatiga tegish, ularni obro'sizlantirish va hokazo);

e) Noqonuniy faoliyat bilan shug'ullanganda, shu jumladan xakerlik kabi xatti-harakatlar bilan shug'ullanishi aniqlanganda.

9.6. Sotuvchi alohida toifadagi ehtiyojmand shaxslar tomonidan yuqoridagi shartnoma majburiyatlari buzilgan taqdirda vandalizm yoki sotuvchiga to'g'ridan-to'g'ri zarar yetkazilmagan bo'lsa, shartnomani bekor qilmasligi mumkin.

9.7. Xaridor Intil platformasidan olgan xizmatlar va ularning natijalarini, shu jumladan online kurslar va darsliklarni, shaxsiy akkauntidan foydalanish huquqlarini tijorat maqsadida ishlatsa, uchinchi shaxslarga tarqatsa, yoki sotsa 10 million so'm jarima to'laydi. Ushbu jarima miqdoridan xizmat ko'rsatuvchiga yetkazilgan haqiqiy moddiy zarar qoplanib, ortib qolgan summa xaridorga qaytariladi.

9.8. Xaridor xizmat ko'rsatuvchi tomonidan taqdim etilgan o'quv kurslari orqali olingan barcha bilimlar faqat qonuniy va etik maqsadlar uchun mo'ljallanganini tan oladi. Xaridor olingan bilimlardan qonunga xilof, noto'g'ri yoki etikasiz harakatlarni, shu jumladan xakerlik, ma'lumotlarga noqonuniy kirish, zararli dasturiy ta'minot yaratish va tarqatish, intellektual mulk huquqlarini buzish kabi amallarni sodir etganlik uchun javobgar bo'ladi. Bunda, agar xaridor sotuvchidan olingan bilimlardan qonunga xilof tarzda foydalanib, noto'g'ri yoki etika qoidalariga zid xatti-harakatlarni sodir etsa, xaridor bunday harakatlar uchun to'liq shaxsan javobgar bo'ladi va sotuvchiga ushbu harakatlar oqibatida yetkazilgan zararni qoplab berishi shart.

## **10. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI**

10.1. Mazkur shartnoma bo'yicha vujudga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizo va kelishmovchiliklar taraflar tomonidan o'zaro muzokaralar o'tkazish orqali hal etiladi.

10.2. Agar nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal etish imkonsiz bo'lsa yoki taraflar biror kelishuvga erisha olmasalar taraflar nizoni hal qilish uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Fuqarolik ishlari bo'yicha sudga murojaat qiladilar.

## **11. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARDAN FOYDALANISH TARTIBI**

11.1. Xizmat ko'rsatuvchi xaridor tomonidan taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarni qonunchilikda belgilangan tartibda va darajada himoyada bo'lishi va sir saqlanishi uchun javobgardir.

11.2. Shaxsga doir ma'lumotlarning xavfsizligi deganda shaxsga doir ma'lumotlardan noqonuniy ravishda va/yoki ruxsatsiz foydalanishdan, shaxsga doir ma'lumotlarni yo'q qilishdan, o'zgartirishdan, blokirovka qilishdan, nusxalashdan, taqdim etishdan, tarqatishdan, shuningdek shaxsga doir ma'lumotlarga nisbatan boshqa noqonuniy harakatlardan himoyalangan muhitni ta'minlash nazarda tutiladi.

11.3. Platformaga pochta manzili yoki internet orqali kontaktdan foydalanish bilan tegishli yozma so'rov yuborish orqali, shuningdek, xaridorning shaxsiy kabinetidan so'rov yuborish orqali, xaridor platformadan o'zining shaxsiy ma'lumotlari, ularga ishlov berish va foydalanish to'g'risida to'liq ma'lumot so'rashga, shuningdek, noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan shaxsiy ma'lumotlarni chiqarib tashlash yoki tuzatish/qo'shishni talab qilishga haqli.

11.6. Xaridor shartnoma tuzilgan kundan boshlab 1 (bir) yil davomida xizmat ko'rsatuvchi tomonidan shaxsiy ma'lumotlarini amaldagi qonunchilikka muvofiq qayta ishlashga rozilik beradi. Ushbu rozilik xaridor tomonidan platformaga pochta manzili bo'yicha yozma ariza yuborish yoki Intil platformasida xaridorning shaxsiy kabinetidan so'rov yuborish orqali bekor qilinishi mumkin.

## 12. YAKUNIY QOIDALAR

12.1. Ushbu oferta shartnomasi e'lon qilingan sanadan boshlab, ikkinchi taraf uchun aktsept qilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunlariga qadar amal qiladi.

12.2. Ushbu shartnomaga qilinadigan barcha ilovalar, qo'shimchalar va o'zgarishlar ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

Hujjat qabul qilingan sana:

09.02.2026